MUSIQA PEDAGOGIKASIDA "MUSIQIY TAFAKKUR" TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA TARKIBIY QISMLARI

The content and components of the concept of "musical thinking" in music pedagogy

Содержание и компоненты концепции «музыкального мышления» в музыкальной педагогике

Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi

ORCID: 0009-0004-9429-144X

hulkaroyhomidova98@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa pedagogikasi va musiqiy tafakkur tushunchasi o'rganildi. Tadqiqot davomida musiqiy tafakkur tushunchasining mazmuni va tarkibiy qismlari haqida ma'lumot berildi. Musiqa pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri bo'lgan "musiqiy tafakkur" tushunchasining mazmun-mohiyati va uning tarkibiy qismlari tadqiq etilgan. Musiqiy tafakkur shaxsning musiqiy obrazlarni idrok etish, tahlil qilish va umumlashtirishga qaratilgan aqliy faoliyat sifatida talqin qilinadi. Maqolada ushbu fenomenning psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilinib, uning intellektual, emotsional va kreativ tarkibiy qismlari yoritib berilgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется концепция музыкальной педагогики и музыкального мышления. В ходе исследования была представлена информация о содержании и компонентах концепции музыкального мышления. Изучено содержание и сущность концепции «музыкального мышления», являющейся одним из актуальных вопросов музыкальной педагогики, и её компоненты. Музыкальное мышление интерпретируется как умственная деятельность человека, направленная на восприятие, анализ и обобщение музыкальных образов. В статье анализируются психолого-

педагогические основы этого явления, выделяются его интеллектуальные, эмоциональные и творческие компоненты.

ANNOTATION

This article studies the concept of music pedagogy and musical thinking. During the research, information was provided about the content and components of the concept of musical thinking. The content and essence of the concept of "musical thinking", which is one of the urgent issues of music pedagogy, and its components were studied. Musical thinking is interpreted as a mental activity of a person aimed at perceiving, analyzing and generalizing musical images. The article analyzes the psychological and pedagogical foundations of this phenomenon, highlights its intellectual, emotional and creative components.

Kalit so‘zlar: musiqiy tafakkur, idrok, musiqiy obraz, intellektual tahlil, emotsional intuitsiya, musiqa pedagogikasi, kreativlik.

Ключевые слова: музыкальное мышление, восприятие, музыкальный образ, интеллектуальный анализ, эмоциональная интуиция, музыкальная педагогика, творчество.

Keywords: musical thinking, perception, musical image, intellectual analysis, emotional intuition, music pedagogy, creativity.

O‘zbek musiqa pedagogikasi boy tarixiy an’analarga ("Usto-shogird" maktabi) ega. Forobiy va Ibn Sinoning musiqiy-estetik qarashlari bugungi milliy pedagogikamizning poydevori hisoblanadi. Hozirda maktablarda "Musiqa madaniyati" fani orqali o‘quvchilarga milliy maqomlarimiz va jahon klassikasi uyg‘unlikda o‘rgatilinmoqda. Musiqa pedagogikasi — bu qalb va aql tarbiyasi hisoblanadi. U insonni nafaqat "tinglovchi", balki san’atni "idrok etuvchi" shaxs qilib kamolga yetkazadi. Musiqiy pedagogika murakkab fan lekin shu bilan bir qatorda eng qiziqarli fan ham hisoblanadi. Chunki musiqa o‘rgatuvchi xuddi onadek musiqani bolaga yoshlik davridan boshlab o‘rgatadi. Yoshlikdan musiqiy zehnini rivojlantirish, xis -tuyg‘ularini yo‘naltirish, musiqiy tarbiyani kamol toptirish uchun ham musiqiy bilim yoshlikdan beriladi. Bo‘lajak musiqa

o‘qituvchilari esa ana shu jihatini ko‘proq e’tiborga olmog‘i darkor. O‘quvchilar musiqiy didini, bilimini , dunyoqarashini , tafakkurini shakllantirish kelajakda musiqa sohasidagi kamoloti uchun asosiy vazifasi bo‘lib xizmat qiladi. Musiqiy bilimni o‘zlashtirishda esa musiqiy tafakkur doimo shart va zarurdir. Musiqiy tafakkuri bo‘lmagan va musiqiy tafakkurga ega bo‘lmagan, rivojlantirmagan har qanday inson musiqani o‘zi ham tushunmaydi va boshqalarga ham yetkazib bera olmaydi. “Tafakkur” so‘zi arabcha “fakkara” o‘zagidan olingan bo‘lib, fikr yuritish, mulohaza qilish , hattoki, tanqid qilish ma’nolarini ham anglatadi. Tafakkur - kishi ongida borliqning , uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayoni hisoblanadi. Tafakkur hissiy bilish, idrok etish vositasida hamda uning chegaralaridan chiqqan ravishda amaliy faoliyat asosida rivojlanadi, shakllanadi hamda yuzaga keladi. Tafakkur aniq bilimlar, dalillarga tayanadi, tahlil qiladi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi. Inson tafakkuri orqali narsa hamda hodisalarning mohiyatini juda chuqur anglaydi, mulohaza yuritishi orqali haqiqatni topadi. Masalan musiqada-musiqiy tafakkur bu musiqani idrok etish, his qilish jarayoni hisoblanadi. Musiqiy tafakkur musiqiy his, musiqiy idrok asosida paydo bo‘ladi va ovozli, musiqiy, badiiy obrazlarga tayanadi. Musiqiy tafakkurning o‘ziga xosligi musiqiy qobiliyatning rivojlanganligiga, shuningdek, inson yashab, tarbiyalanayotgan musiqiy muhit shart-sharoitiga bog‘liq. Sharq va arab musiqiy madaniyatlari orasidagi tafovutlarni alohida ta’kidlash joiz. Sharq musiqasi uchun monodiyaga asoslangan tafakkur: ko‘plab lad ko‘rinishlari (80 dan ortiq) , chorak tonli, nimchorak tonli, glissando, ritm tuzilishining boyligi, tovushlarning notemperatsiyaviy munosabati, tembr va kuy xilma xilligidan foydalanish bilan musiqiy tafakkurni gorizontal rivojlantirish , xosdir.[1]

Sharq uyg‘onish davri allomalaridan bo‘lmish Abu Nasr Farobiy tafakkur haqida shunday deganlar: “Inson boshqa mavjudotlardan o‘zining fikrlash qobiliyati, nutq madaniyati bilan ajralib turadi. Farobiy musiqani ham

tafakkur mahsuli deb bilgan va uning inson axloqiga ta’sirini aql orqali tushuntirgan. Tafakkur orqali musiqani rivojlantirish va shakllantirish mumkin.

Imom G‘azzoliy ham tafakkurni qalb nuri deya ta’riflagan. Uning fikricha, inson fikrlash orqali o‘zini va borliqni , haqiqatlarni taniydi.

M.G.Aranovskiy ta’rifiga ko‘ra, musiqiy tafakkur nafaqat tovushlarni eshitish, balki ularni mantiqiy bog‘lanishda idrok etish va "musiqiy matn"ni semantik (ma’noviy) tahlil qilish qobiliyatidir.[2]

Musiqa pedagogikasida musiqiy tafakkur tushunchasi o‘quvchi yoki talabaning musiqiy asarni nafaqat tinglashi, balki uni tahlil qilishi, mazmunini anglashi va ijodiy qayta ishlash qobiliyatini anglatadi. Bu jarayon shunchaki eshitish idrokidan farq qilib, intellektual va hissiy faoliyatning sintezi hisoblanadi.

Musiqiy tafakkurning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Musiqiy idrok (Perseptiv qism). Bu tafakkurning poydevori hisoblanadi. Idrok orqali inson musiqiy tovushlarni, ularning baland-pastligi, sur’ati va dinamikasini ajratadi. Mazmuni- tovushlar oqimidan musiqiy obrazni shakllantirish hisoblanadi.

Xususiyati shunchaki eshitish emas, balki "tinglay olish" qobiliyati ham hisoblanadi.

2. Musiqiy xotira - tafakkur jarayonida o'tmishdagi tajribalarga tayanish uchun xotira juda muhim. Mazmuni musiqiy intonatsiyalar, mavzular va asar tuzilishini eslab qolish hisoblanadi.

Ahamiyati - agar xotira bo'lmasa, inson asarning boshi bilan oxirini mantiqan bog'lay olmaydi.

3. Emotsional intuitsiya (hissiy qism). Musiqa — bu his-tuyg'ular tili. Musiqiy tafakkur har doim emotsiya bilan bog'liq.

4. Analitik-mantiqiy qism. Bu qism ko'proq professional darajada namoyon bo'ladi va bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun juda muhim. Mazmuni- asarning janrini, shaklini (masalan, sonata yoki variatsiya), garmoniyasi va polifonik

xususiyatlarini tahlil qilish. Amaliyoti esa musiqiy asar qanday "qurilganini" mantiqan tushunish demakdir.

5. Kreativ (ijodiy) component. Tafakkur faqat tayyor narsani qabul qilish emas, balki yangilik yaratish hamdir.

B.V.Asafyev ta'limotiga ko'ra, musiqiy tafakkurning shakllanishi "tinglash — ijro etish – ijod qilish" triadasi orqali amalga oshadi. Bu jarayonda talabaning ichki eshitish qobiliyati (audiatsiya) muhim rol o'ynaydi.[3]

XULOSA

Musiqiy tafakkur insonni – musiqiy bilimi, dunyoqarashi va qarashlarini kengaytiradi. Zamonaviy musiqa pedagogikasida tafakkur nafaqat bilimlar majmuasi, balki musiqiy asarni tahlil qilish va undan yangi ma'no topish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Musiqiy tafakkuri rivojlangan insongina musiqiy asarlarni asl mohiyati va mazmunini anglay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Murodova D. Musiqiy pedagogika va psixologiya. Darslik. Farg'ona -2023, 67--bet

2.Aranovskiy M.G. Musiqiy tafakkur va uning tuzilishi. — M.: Muzika, 1974. — 124-bet.

3.Medushevskiy V.V. Musiqiy asar tahlili va uning mazmuni. — M.: Sovetskiy kompozitor, 1988. — 45-50-betlar.